

MUHAMMAD ALI SOBUNIYNING “ASH-SHARH AL-MUYASSAR LISAHIH AL-BUXORIY” ASARINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Xoliqov Muhammad Yusuf Abduxalil o‘g‘li

Anotatsiya: *ushbu maqolada olim mufassir faqih Muhammad Ali Sobuniyning “ash-sharh al-muyassar lisahih al-buxoriy” asarining yozilishi tarixi, asarning tarkibiy tuzilishi, asarni ta’lif etishdagi olim tomonidan olib borilgan ilmiy me’todlar, asarning bugungi kundagi ahamiyati haqida ilmiy manbalarga tayangan holda malumotlar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *hadis, sharh, al-jome’ as-sahih “ash-sharh al-muyassar lisahih al-buxoriy”, ummu qays.*

Islom dunyosida Qur’oni karimdan keyingi eng katta e’tiborni imom Buxoriyning «Al-Jome’ as-sahih» kitoblari qozongan. Hadislarning diqqat bilan tanlangani, mukammal tartibga ega ekani, ichi qimmatbaho ma’lumotlar bilan to’laligi bu benazir kitobning o’sha e’tiborni qozonganiga sabab bo’lgandir. Butun Islom olami ushbu kitobga mustahkam bog’langani, har doim, har qanday masala bo’yicha ham bu kitobni asosiy manba va suyanchiq sifatida qabul qilgani ham bir xaqiqatdir. Musulmonlarning «Sahihul Buxoriy»ga bo’lgan munosabatlari ha- qida quyidagi olimning fikrlarini keltirish mumkin. Hofiz Shamsiddin Zahabiy «Tarixul Islom» kitobida quyidagilarni yozadi: Buxoriyning «Jome’ as-sahih»i Alloh taoloning kitobidan keyingi Islomning eng ulug‘ va afzal kitobidir. Hozirgi kunda bu kitob odamlar uchun eng oliy sanaddir. O’ttiz yil dirki, uning samoi oliydir. Bugun qanday bo’lishini o’zingiz bilib olavering. Agar bir odam bu kitobni eshitish uchun ming farsax yo’l yursa, safari zoye bo’lmaydi». «Sahihul Buxoriy»ning martabasi qay darajada ekanini muhaddislar, faqihlar, fiqhiy mazhablari va ijtihodlari turli bo’lishiga qaramay, barcha ulamolar baravariga chuqur o’rganganlari, tahlil va sharh qilganlari, muxtasar va hoshiyalar yozganlaridan ham bilib olish mumkin. Ularni ta’riflash va o’rganish uchun alohida kitoblar yozishga to’g’ri keladi. Zamondosh ulamolardan doktor Abdulg‘ani Abdulxoliq o‘zining “Imom Buxoriy va uning Sahihi” nomli asarida «Sahihul Buxoriy ga bog’liq sharh, hoshiya va muxtasarlardan bir yuz o’ttiz bittasini keltirgan. Imom Buxoriyning «Sahih»lariga bugungi kunga qadar ko‘plab sharhlar yozilgan. Boshqa biror hadis kitobiga Sahihul Buxoriyga yozilganchalik sharh yozilgan emas. Shuning o‘zi ham bu kitobning Islom olamidagi o‘rni beqiyosligiga dalolat qiladi. Mazkur sharhlardan eng mashxurlari quyidagilar:

1. «Fathul-boriy sharh as-Sahihil Buxoriy». Muallifi Shihobuddin Ahmad ibn Aliy ibn Muhammad ibn Aliy ibn Mahmud ibn Ahmad ibn Hajar al-Asqaloniy ash-Shofiiy.

2. «Al-Kavkab ad-Daroriy fi ash-sharh Sahihil Buxoriy». Muallifi Shamsud- din Muhammad ibn Yusuf al-Kirmoniy.

3. «Irshadus-sariy fi ash-sharh Sahihil Buxoriy». muallifi Shihobuddin Ahmad ibn Muhammad ibn Abu Bakr al-Qastaloniy al-Misriy ash-Shofiiy.

Bugungi kunda ham mazkur asarga yozilgan sahrhlar talaygina. Jumladan, mashxur mufassir olim Muhammad Ali Sobuniy ham mazkur asarga yengil sharh yozgan.

Muhammad Ali Sobuniy islomshunoslik sohasi rivoji yo'lida jumladan, hadis ilmi bo'yicha ham bir qator ishlarni amalga oshirgan. Olimning hadis ilmi sohasida eng ko'zga ko'ringan asarlaridan biri imom Buxoriyning Sahih Buxoriylariga yozilgan yengil sharhidir. Mazkur asari ham bugungi kundagi eng mo'tabar asarlar qatorida tilga olinadi. Ushbu asar sharhi o'zining til jihatidan yengil uslubda yozilganligi, undagi jummlar bugungi zamonaviy til ruhida yozilganligi bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Asar 2011-yilda Livandagi "Maktabatul-asriyya" nashriyotida besh jildda ilk bor nashr qilingan¹¹.

Ushbu asar ham qolgan asarlar kabi kirish qismdan boshlanadi. Unda Alloh taolaga hamd Rasullulloh (s.a.v.)ga salovat va salomlar bilan boshlanib, hadis imining ahamiyati uning fazilati haqida batafsil to'xtalib o'tilgan. Shungdek, asarning kirish qismida asar muallif hisoblangan imom Buxoriyning hayoti, ilm yo'lida qilgan safari haqida ham batafsil ma'lumotlar berib o'tilgan.

Asarning yozilish uslubi haqida to'xtalib o'tadiga bolsak, kitobning kirish qismida yozilish uslubi haqida to'liq ma'lumot berilganligini ko'rishligimiz mumkin ular quyidagilar.

1. Hadis sharifni yozishda uni o'quvchilar undagi so'zlarni xato o'qimasliklari uchun harakatlari qo'yilgan holatda yozilgan.
2. Hadisda kelgan lafzlar lug'aviy sharh qilingan.
3. Hadis ma'nosini qisqa bir sharh qilingan, ushbu ish hadis sharhining juda cho'zilib ketishini oldini olish maqsad qilingan.
4. To'rt mazhab faqihlari va muhaddislarning aytgan so'zlari yordami bilan ushbu hadisdan olinadigan shar'iy hukmlar ham keltirib o'tilgan.
5. Hadis sharifga aloqador bo'lgan rivoyat qiluvchi kishilarning ba'zilarini ham tanishtirib o'tilgan.
6. Hadis sharifga aloqador bo'lgan muhim ishlar to'g'risida ham ma'lumotlar keltirib o'tilgan.
7. Sahih buxoriyda kelgan ba'zi hadislarni zaifga chiqaradiganlar yoki uni inkor qiladiganlar shuningdek, aqlga zid deb hisoblaydiganlarga ilmiy, ishonchli raddiyalar berib o'tilgan.
8. Hadisdagi iboralarni shuningdek, hadisni tushunishni osonlashtirishlik maqsadida tartiblab chiqilgan¹².
9. Sahih buxoriyda kelgan hadislarni raqamlashda "amiyriyyati al-mu'tamada" nashriyotidagi yunon nusxasiga suyanilgan, shu bilan birga ushbu nusxaga Imom qastaloniy ham o'zining "Irshod as-sariy lisharhi sahih buxoriy" nomli asarida ushbu nusxaga suyangan holatda hadislarni raqamlab chiqgan.
10. Agar hadis sharifdan ko'zlangan murod bir taraf bo'ladigan bo'lsa, bunday holatda hadisni takror bo'lib qolmasligi maqsadida bir necha marta hadislar

¹¹ Muhammad Ali Sobuniy. Sharh-ul-muyassar li-sahih-il-Buxoriy. – Bayrut: Maktabat-ul-asriyya, 2011. –J. 1. –S. 13.

¹² Muhammad Ali Sobuniy. Sharh-ul-muyassar li-sahih-il-Buxoriy. – Bayrut: Maktabat-ul-asriyya, 2011. –J. 1.–S.

11.

sharhlanmagan¹³. Mazkur holat yuzaga kelgan vaqtda biz uni zikr qilib o'tdik deb, usha sharhga qarashlari zikr qilib o'tilgan.

Muallif hadislarni sharhlashdan avval sahih buxoriyning sohibi imom buxoriy rohimahullohning hayoti va uning ilmiy faoliyati, ilm yo'lida qilgan safarlari to'g'risida atroflicha ma'lumot berib o'tadi. Ma'lumki, Sahih buxoriy Rasululloh s.a.v ga vahyning boshlanish kitobidan boshlanadi¹⁴. Undagil keltirilgan ilk hadis esa "Amallar niyyatga bog'liq" hadisi bilan boshlanadi. Quyida ushbu hadis sharif qanday sharh qilinganini ko'rib chiqamiz.

Mo'mininlar amiri Abu Xafs Umar ibn Xattob (roziyallohu anhu) dan rivoyat qilinadi: Men Rasululloh s.a.v. ning bunday deyaotganlarini eshitdim: Amallar niyyatlar bilan e'tiborlidir. Har bir kishi uchun niyyat qilgan narsasi bo'ladi. Kimning hijrati Alloh va Rosuli uchun bo'lsa, uning hijrati Alloh va Rosuli uchun deb e'tibor qilinadi. Kimning xijrati biron dunyo matohini qo'lga kiritish yoki biron ayolni nikohlab olish uchun bo'lsa, uning hijrati nima uchun qilingan bo'lsa, o'sha uchundir¹⁵. (Imom Buxoriy va Imom Muslim rivoyati).

Mazkur hadis sharifning vorid bo'lish sabab: Ummu qaysning muhojiri: Muhaddislarni ushbu hadis sharifni borasida quyidagi ma'lumotni keltiradilar: Musulmonlar makkadan madinaga hijratgan buyurilgan vaqtda ular bilan bir kishi ham bor edi. U bir ayolgan sovchi qo'ygan, u ayolning ismi bo'lsa ummu qays edi. Ushbu ayol erkak nikohiga rozi bo'ladi, faqat shu shart bilan qachonki erkak madinaga hijrat qiladigan bo'lsa. U erkak usha ayolga nikohlanish maqsadida madinaga hijrat qiladi. Uning qilgan hijratining maqsadi faqatgina usha ayolga nikohlanish edi.

Ibn mas'ud (roziyallohu anhu) shunday deydi: "Biz ushbu kishini ummu qaysning muhojiri deb nomlagan edik, bu holat musulmonlar orasida mashhur bo'lib ketdi. Ushbu hikoya Tabaroniyda ham kelgan¹⁶."

Mazkur hadisdan olinadigan foydalar: Ushbu hadis sharif xabar beradiki: kimning qilayotgan ishlarining maqsadi din yo'lidan boshqa bo'lar ekan, u o'zining niyyatida xolis bo'lgan mo'minlar yetadigan va qilgan amallari bilan Allohning vajhini qasd qilganlar yetadigan ajr savobga yeta olmaydi.

Ushbu hadis sharif din asoslaridan hisoblanadi hamda amallarning qabul bo'lishli yoki rad qilinishi unga bog'liqdir¹⁷.

Alloh azza va jalla shunday deb marhamat qiladi: Holbuki, ular faqat Allohgagina ibodat qilishga, uning dinigagina ixlos qilishga, boshqa dinlarga moyil bo'lmaslikka, namozni to'liq o'qishga, zakot berishga buyurilgan edilar. Ana shu to'g'ri (millat) ning dinidir. (Bayyina surasi 5-oyat)

Qilinayotgan amallar Allohning huzurida faqat ikkita shart bilan qabul qilinadi:

1. Niyyatdagi ixlosi (xolisligi)

¹³ O'sha asar. –B. 10.

¹⁴ Imom Buxoriy. Sahih buxoriy. – Bayrut: Muassasa ar-risala an-nashiruvn, 2022. – B. 191.

¹⁵ Yahyo ibn Sharaf Navaviy. Qirq hadis (sharh va izohlar). (tar: Nuriddinov J.) – T.: Sharq, 2019. –B. 20.

¹⁶ Muhammad Ali Sobuniy. Sharh-ul-muyassar li-sahih-il-Buxoriy. – Bayrut: Maktabat-ul-asriyya, 2011. –J. 1.–S. 18.

¹⁷ O'sha asar. –B. 19.

2. Sayyidul mursaliynlarning hidoyat yo‘llariga muvofiq bo‘lishligi.

xulosa

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, olimning imom buxoriyning sahih buxoriyga yozgan yengil sharhi borasida so‘z yuritadigan bo‘lsak ushbu asar bugungi kunda jamiyatimizda duch kelinayotgan ayrim axloqiy va ijtimoiy muammolarni hal qilishga yordam berishi ular yechimlarni bugungi zamon ruhi bilan yoritib berilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Olimning ushbu asari juda ham sodda oson uslubda sharh qilinganligi hadislarni sharhlashda bugungi zamon ruhi bilan sharhlangani shuningdek, uning tili yengiligi, tushuntirish uchun olib borilgan ilmiy me‘todlar rangba-rangligi bilan ajralib turadi.